

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Yapon tilida “TO” “BA” “TARA” “NARA” shart  
maylini ifodalovchi morfologik birliklar tahlili  
(yapon tili va o`zbek tili vaziyati misolida)**

**Bajardi:** “Yapon filologiyasi” ta’lim

yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Abdikadirova Muslima Abdirashidovna\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** “Yapon filologiyasi”

kafedrası o`qituvchisi

Ziyamova Zuhra Omanovna\_\_\_\_\_

**Konsultant:** Filologiya fanlari nomzodi,

dotsent

Nosirova Saodat A \_\_\_\_\_

TOSHKENT – 2012

## Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo tillari” “Yapon filologiyasi” kafedrasini mudiri  
fakulteti dekani f.f.n., Nosirova S. A. f.f.n., dots. Kim N.D.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012-yil

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012-yil

### MUNDARIJA

<b>I. KIRISH</b> .....	3
<b>II. ASOSIY QISM</b>	
<b>1-bob.YAPON TILIDAGI “TO” “BA” “TARA” “NARA” SHART MAYLLARI VA O‘ZBEK TILIDAGI SHART MAYLINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.</b>	
1.1. Shart mayliga ta’rif.....	9
1.1.1. “TO” shart maylining qo‘llanish xususiyatlari.....	10
1.1.2. “BA” shart maylining qo‘llanish xususiyatlari.....	15
1.1.3. “TARA”shart maylining qo‘llanish xususiyatlari.....	20
1.1.4. “NARA” shart maylining qo‘llanish xususiyatlari.....	25
1.2.O‘zbek tili va yapon tili shart mayllarining o‘xshash va farqli jihatlari.....	28
1.2.1.Yapon tili shart mayllarini ishlatishda xato qilish osonligi muammosi.....	29
<b>2-bob.YAPON TILI SHART MAYLI “TO” “BA” “TARA” “NARA” YUZASIDAN O‘TKAZILGAN ANKETA SO‘ROVI VA UNING NATIJALARI .</b>	
2.1. Anketa so‘rovini olib borish usuli .....	30
2.2.Anketa so‘rovnomasi natijalarining tahlili.....	35
<b>III.XULOSA</b> .....	37
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	40
<b>Ilovalar</b> .....	44

## KIRISH

*Mamlakatimizda hayotning barchasohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdirida, odamlar dunyoqarashining o'zgarishida, buyuk davlat barpo etishdek oliyjanob orzuimizning ro'yobga chiqarishda zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muhim kasb etadi<sup>1</sup>".*

Islom KARIMOV

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ertangi kun xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlashning yo'l-yo'riqlarini belgilab bergan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da tarbiya va ta'limni yuqori darajaga ko'tarish, millat ma'naviyat va bilimdonligini oshirish, xalq ta'limning insoniy-gumanitar xususiyatlari to'liq ta'minlashini, ilg'or pedagogik, texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq qilish ko'zda tutilgan. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro'yobga chiqarish bugungi kunning ustuvor vazifasidir<sup>2</sup>.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng ijtimoiy hayotning barcha jabhalari tub burilish yasaydigan voqealar yuz bergani singari ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi, ayniqsa, tilshunoslik faniga munosabat tubdan o'zgargani bugungi kunda barcha mutaxassislar tomonidan qiziqish bilan qayd qilinib kelinmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Yaponiya mamlakatlarning hamkorlik munosabatlari kengayib, endilikda nafaqat siyosiy balki ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va boshqa sohalarda ham faoliyat olib borilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda ikkidavlat o'rtasidagi madaniy munosabatlar o'zining yuqori bosqichiga ko'tarildi.

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari T.:Sharq,1997,142

<sup>2</sup>Karimov I.A. "Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadriyat" O'zbekiston, 2006, 98-bet

Oxirgi 10 yil ichida, O'zbekistonda yapon tilini o'rganuvchilar soni sezilarli darajada o'sib, 2004 yilda 1853 kishini tashkil etgani quvonarli holdir. Hozirgi kunda yapon tili jahonning 130 ta davlatda o'rganilib, O'zbekiston bu borada o'quvchilar soni jihatidan 35 o'rinda turadi. Bu dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.<sup>3</sup> Bu esa, o'z navbatida ikki mamlakat iqtisodiy, madaniy munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Munosabatlarda mavjud bo'lgan samimiylilik va ochiqlik har bir xalqning muloqot xulqida namoyon bo'ladi<sup>4</sup>. Har bir xalqning muloqot xulqi insonning ruhiyati, millati, yashash joyi, ma'naviyati, e'tiqodi, urf-odati, yoshi, jinsi, kasb-hunari va ijtimoiy o'rniga muvofiq bir-biridan farq qiladi. Bunday farqni hisobga olgan holda munosabatlarga zarar yetkazmaslik uchun har ikkala xalqning o'rganish nazariy va amaliy ahamiyati kasb etadi deb o'ylaymiz. Albatta muloqot xulqini to'g'ri tarzda namoyon qilish uchun ushbu tilning qonun qoidalarini (grammatikasi) o'rganish juda muhim sanaladi.

Yapon tili o'zining murakkab tuzilishga ega ekanligi bilan boshqa tillardan farq qiladi. Bular tildagi bog'lovchi so'zlarning ko'pligida hamda ularning ma'no va shakl jihatidan bir-biriga o'xshash ekanligida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, yapon tiliga xos bo'lgan etimologik jihatlar hamda ushbu tilni o'rganish jaroyonida namoyon bo'ladigan tilning nozik va farqli jihatlari ayniqsa o'zga til egalari uchun murakkab sanaladi. Yapon tilida eng ko'p qo'llaniladigan va shu bilan birga yapon tilini o'rganuvchilar uchun esa, o'zlashtirish eng qiyin bo'lgan, bir-biriga ma'no jihatdan juda o'xshash bo'lgan yapon tili va o'zbek tili shart mayllini keltirish mumkin.

**BMI ning maqsad vavazifalari.** Ushbu BMI dan ko'zlangan asosiy maqsad – yapon tilini o'rganuvchilar uchun avvaloo'zbek tili shart maylli va yapon tili

---

<sup>3</sup>2004 yil O'zbekiston-Yaponiya Markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovnomasi asosida.

<sup>4</sup>Қаранг: Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 2002 18-бет. Ўзбек тили лексикологияси, Тошкент 1981, 49-бнт. Қаранг: умумий сема бир семантик майдондаги семемаларнинг туташтирувчи семаси юкоридаги луғат 114 бет

shart maylini o'ziga xos o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqish hamda, anketa so'rovnomasiga asoslangan holda yapon tili o'rganuvchilar uchun mazkur shart maylini qo'llashdagi muammoli jihatlarini aniqlab, xatoga yo'l qo'yish sabablarini tahlil qilgan holda yoritib berish hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagilar **BMI ning vazifalarini** tashkil etadi:

-Yapon tili shart mayli “to”, “ba”, “tara”, “nara”ga ta'rif izoh berish va ularning lug'aviy ma'no va shakllarini tahlil qilish ;

-Yapon tilidagi shart mayllarini bir-biridan farqlash va o'ziga xos jixatlari, hususiyatlarini tahlil qilish;

- Yapon tili shart mayli “to”, “ba”, “tara”, “nara”ni gapda qo'llanishi xususiyatlarini, imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

-Yapon tili shart maylini o'zbek tilida o'rganuvchilari uchun qanchalik osonva qanchalik qiyinligini tahlil etish;

-O'z ona tilisida o'rganganda qanchalik qiyinchilik tug'dirishi darajasini tahlil etish;

-Talabalar orasida yapon tili shart mayli “to”, “ba”, “tara”, “nara”ga oid anketa so'rovnomasi o'tkazib, uni tahlil qilish;

- Yapon tili shart mayli “to”, “ba”, “tara”, “nara” ning chuqur o'rgangan holda, ishlatishda muammoga duch kelayotgan o'quvchilar uchun muammo yechimlari to'g'risida ilmiy tahlillar va xulosalar berish;

**BMI ning o'rganilganlik darajasiva metodologik asosi.** BMI ning mavzusiga bog'liq ilmiy ishlar asosan yapon tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan. Ular orasida yapon tilida mavjud bo'lgan shart mayli, bir qator g'arb va sharq olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Bularga biz yapon tadqiqotchisi Miya Jibo Tatsuo tomonidan 2004-yilda olib borilgan tadqiqotni keltirib o'tishimiz mumkin. Miya Jibo Tatsuo tadqiqotning mavzusi “ba, to, tara, nara-shart maylini ifodalovchi shakl” dir. “Yapon tili shart mayli ” ning gapishlatilishiga kelsak, yapon tilida to'rt turli: “to”, “ba”, “tara”, “nara” qo'llanilishi mavjud. Hozirgi

kunda yapon tili o`rganuvchilari uchun yapon tili shart maylini to`g`ri qo`llay olish murakkab hisoblanadi. Ushbu tadqiqot diqqat markazida shart maylining bir-biridan farqli jihatlarini ochib berishga, hamda to`g`ri ishlata olishga mo`ljallangan.

Bundan tashqari, Yamada Midorining “Shart maylini ifodalovchi “nara”, “tara”, “nara” (2000) ilmiy tadqiqot ishida bir qancha misollar yordamida, yapon tili shart maylining ma`nosini va ishlatilishida sezilarli darajada aniq farqli jihatlar borligini ilmiy isbotlagan.

Shuningdek, Suniratto Nyanjirounsukku tomonidan “Ona tilisi tailand tili bo`lganlarda yapon tili shart maylini tahlil qilish” deb nomlangan solishtirma tadqiqot ishi olib borilgan. Tadqiqot davomida Ochanomizu Universitetining mutaxassisligi yapon tili bo`lgan talabalar va ona tilisi tailand tili bo`lgan yapon tili o`rganuvchilari orasida mashqlar o`tkazib olingan. Olib borilgan tadqiqot natijasida yapon tilida qo`llaniladigan shart mayli, tailand tilida faqatgina bir tur yordamida yasalganligi bois, tailand o`rganuvchilari uchun nihoyatda samarali tadqiqot ishlaridan biri bo`ldi.

O`zbek tilsunosligida esa, Toyiboyev Sulton “Hozirgi o`zbek adabiy tilida shart maylining ifodalanish usullari (1971)”, R.R. Sayfullayev “Hozirgi o`zbek tilida gaplarning zotiy talqini (2007)”, A.Mamajonov “O`zbek tili qo`shma gaplarining stilistik xususiyatlari (1991), A.Mattoziyev “O`zbek tilidagi shart mayli bog`lovchisining taraqqiyot tarixi (1966)”, M.M.Rahmatov “Alisher Navoiyning nasriy asarlarida shart maylining sintatik xususiyatlari (2006)” kabi bir qator ilmiy ishlarni keltirishimiz mumkin.

Ushbu tadqiqotlarning deyarli barchasi Yaponiya mamlakatining hududida amalga oshirilgan bo`lib, barcha tadqiqotlar diqqat markazida yaponlarning o`zlari turgan. Ammo diqqat markazida yapon tilini o`rganuvchi chet elliklar turgan bu boradagi tadqiqotlar deyarli kam uchraydi.

Xulosa qilib, yuqoridagi deyarli barcha ilmiy ishlarda yapon tili shart maylining subyektivlik va obyektivlikni ifodalash jihatlari, ularning o`zaro farqlari,

yapon tili va boshqa chet tillari bilan solishtirilgan hollarida o`rganildi.

Lekin mazkur ishlarda yapon tili shart maylining o`zbek tili shart mayli bilan solishtirilib, tadqiq qilingan ish yo`q.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ilmiy ishni maqsad va vazifalari aniqlandi.

**Tadqiqot ishi mavzusini tanlashdan sabab:** O`zbekistonda yapon tilini o`rganuvchilarini ona tilisi o`zbek tili hamda ona tilisi rus tili va boshqa tillar bo`lgan talabalar tashki etadi.

O`zbekistonda yapon tilini o`rganuvchilarini ona tilisi o`zbek tili hamda ona tilisi rus va boshqa tillar bo`lgan talabalar tashkil etadi.

O`zbek va yapon tillarining gap tuzilishlarida o`zshashliklar mavjud. Bu esa, ona tilisi o`zbek tili bo`lgan talabalarda yapon tilini o`rganishda qulaylik tug`diradi. Biroq o`zbek va yapon tillarining ayrim grammatik o`ziga xosliklarini o`rganishda o`zbek talabalarida muammo tug`diradi. Xususan, yapon tilining shart mayllari ana shunday muammoli masalalardan biridir. O`zbek tilida shartni ifodalovchi maylini bir turi mavjud bo`lsa-da, yapon tilida shart mayllarning soni to`rtgacha yetadi. Ularning ma`no xususiyatlari, o`zaro o`xshash va farqli jihatlarini gapda qo`llanilish imkoniyatlari, murakkabligi bilan ularni o`zlashtirishda talabalarda qiyinchilik tug`diradi.

Bundan tashqari, ushbu mavzuga bag`ishlangan o`zbek tilidagi biror-bir tadqiqot ishi mavjud emas. Muallifning ushbu mavzuni tanlashga turtki bo`lgan omillardan biri ham ana shundadir.

**Tadqiqot ob`yekti va predmeti.** Tadqiqot ishining ob`yekti sifatida, yapon tilidagi shart maylining shakl, ma`no, gapdagi bajarilayotgan funksiyasiga qarab, ularning bir-biridan o`xshash va noo`xshash jihatlarini olingan. Ishning predmeti sifatida esa, yapon tili shart mayli “to, ba, tara, nara” bog`lovchilari birliklari aniq misol sifatida tahlil qilingan.

**BMI ning amaliy ahamiyati.** Ushbu BMI ilmiy ishning ahamiyati shundaki, bu ish o`zbek tili o`rganuvchilari yapon tili shart mayli o`ziga xos jihatlarini

o`rganish, xatolikka yo`l qo`ymaslik, bir-biridan farqini ajrata olishga zamin yaratadi.

Tadqiqot jarayonida to`plangan faktik materiallardan ikki tili o`zbekcha-yaponcha lug`atlar tuzishda, tarjimonlikda, darslik va o`quv qo`llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, yapon filologiyasi bo`limi talabalariga yapon va o`zbek tilining qiyosiy grammatikasini tushuntirishda BMI materiallardan va undagi ilmiy xulosalardan foydalanish mumkin.

**BMI ning tarkibi.** Ushbu BMI kirish, asosiy qismning ikki bobi, o`n paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat.



## II. ASOSIY QISM

### 1-bob. YAPON TILIDAGI SHART MAYLI “TO” “BA” “TARA” “NARA” VA O‘ZBEK TILI SHART MAYLINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.

#### 1.1. Shart mayliga ta’rif

Bosh gapda ifodalanib kelayotgan mavzuning sababi va kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan tobe gapda ifodalanib keladigan qismiga shart mayl gapi deb ataladi. Yapon yili grammatikasida shart maylini ifodalovchi bog‘lovchilari “to(と)”, “ba(ば)”, “tara(たら)”, “nara(なら)” dan iborat.

Ularni gapda quyidagicha yasash mumkin.

---

	tara(たら)、	
Bosh gap (前分)	to(と)、	tobe gap(後分) gap oxiri(文末)
条件表す従属節 (条件節)	ba(ば)、 nara(なら)、	asosiy gap(主節)

Masalan :

- この薬を飲むと熱が下がる。  
Kono kusuri wo nomu **to** netsu ga sagaru.  
Bu dorini ich(**sam**)**ishim bilan** , issig`im tushadi.
- この薬を飲めば熱が下がる。  
Kono kusuri wo nome**ba** netsu ga sagaru.  
Bu dorini ich**sam**, issig`im tushadi.
- この薬を飲んたら熱が下がる。  
Kono kusuri wo nond**ara** netsu ga sagaru.  
BU dorini ich**sam**, issig`im tushadi.
- この薬を飲むなら/飲んだなら熱が下がる<sup>5</sup>。  
Kono kusuri wo nomu**nara**/ nondan**ara** netsuga sagaru.

---

<sup>5</sup>小林賢次「日本語条件表現史の研究」ひつじ書房による

Bu dorini ichsam, issig`im tushadi.

Yuqoridagi to`rtta yapon tili shart maylini yasovchi bog`lovchilarning bir-biridan farqli jihatlari, ishlatish hollari haqida yapon tili ta`limi tomonidan juda ko`p tadqiqot ishlar orqali o`rganilgan. Shu jumladan, grammatik qoidalar tuzilmasi, mashqlar jamlanmasi va boshqa bir qancha ko`p qo`llanmalar ishlab chiqilgan. Shunga qaramasdan, yapon tili shart maylining ishlatilishda hali-xanuz xatoliklar kelib chiqmoqda. Shu sabab ham shart mayli bog`lovchilari (“to, ba, tara, nara”) ning qanday farqli jihatlari borligini hamda, ularning ishlatilishi va o`zbek tili shart mayli bog`lovchisi bilan solishtirgan holda ishni olib borishga harakat qilindi.

### 1.1.1. “TO” shart maylining qo`llanish xususiyatlari

Shart mayli bog`lovchisi “to (と)” ning ma`no xususiyatlari, gapda yasalish qoidasi, asosiy gapning oxirida ma`no ifodalovchi ishlatiladimi, o`tgan zamon shaklida ham ishlatish hollari mavjudmi va “to (と)” bilan “ba (ば), tara (たら), nara (なら)” ning farqli jihatlari quyidagi holatlaridagi gaplar orqali ko`rib chiqiladi.

#### Shart mayli “to (と)” ning yasalish usuli:

Fe`l (動詞)	Sifat(イ形容詞)	Sifat(ナ形容詞) Ot (名詞)	} +to(と)
行く } +to(と) 行かない }	忙しい } +to(と) 忙しくない }	元気休み +to(と) 元気やすみじゃない }	

#### “to (と)” ning ma`no xususiyatlari:

##### 1. O`tgan zamon bo`lmagan vaziyatlarda<sup>6</sup>.

1) Bosh gapning oxirisida, tezda sodir bo`ladigan, so`zsiz sodir bo`ladigan, davom etib sodir bo`ladigan ishlarni ifodaydi.

(1) メールを出すと、すぐ返事が来る。

<sup>6</sup>小林賢次「日本語条件表現史の研究」ひつじ書房による

Me-ru wo dasu **to**, sugu henji ga kuru.

Elektron xatni jo`nat(**sam**)**ishim bilan** ,tezda javobi keladi.

(2) このボタンを押すと、カーテンが閉まります。

Kono botan wo osuto, ka-ten ga shimarimasu.

Bu tugmani bos(**sangiz**)**ishingiz bilan**, parda yopiladi.

2) Umumiy, obyektiv shart , natijani ifodalaganda.

(3) 1 と 2 を出すと、3 になる。

1to 2 wo dasu **to**, 3 ni naru.

1 bilan 2 ni qo`shsa, 3 bo`ladi.

(4) 春が来ると、桜の花が咲く。

Haru ga kuru **to**, sakura no hana ga saku.

Bahor kel(**sa**)**ishi bilan**, sakura guli ochiladi.

(5) 十五夜になると、まんまるな月が上がる。

Jyuugo yoru ni naru **to**, manmaruna tsuki ga agaru.

15 kun tun bo`ls(**a**)**ishi bilan**, to`lin oy chiqadi.

(6) 酒を飲むと、顔が赤くなる。

Sake wo nomuto, kao ga akaku naru.

Sake ich(**sam**)**ishim bilan**, yuzim qizaradi.

3) Hozirgi paytdagi odatlar.

(7) 天気がいいと、毎朝ジョギングに行く。

Tenki ga ii **to**, mai asa jyogingu ni iku.

Ob-havo yaxshi bo`l(**sa**)**ishi bilan**, yugurgani boramiz.

(8) 彼はお金があると、パチンコに行く。

Kare ha okane ga aruto, pachinko ni iku.

Unda pul bo`l(**sa**)**ishi bilan**, pachinko o`ynagani boradi.

4) 「～ないと」の形で困難・警告を表す。

(9) 勉強しないと、わからなくなるよ。

Benkyou shinai **to**, wakaranaku naruyo.

Dars qilmasa, tushunmay qoladi-ku.

(10) お金がないと困る。

Okane ga nai **to** komaru.

Pul bo`lmasa qiynalib qoladi.

## 2. O`tgan zamon gapda qo`llanilishi<sup>7</sup>.

Yapon tili shart mayli “to” (「～と」)ning o`tgan zamonda ishlatilish holatlarida ochilish, insonga bog`liq fe`llar, o`tgan zamon odatlari va shu kabilar ifodalanadi.

(11) ドアを開けると、小さな子供がドアの前に立っていた。

(発見)

Doa wo akeru **to**, chiisana kodomoga doa no maeni tatte ita.

Eshik ochil(**sa**)ishi bilan, kichkina bola eshik oldida turgan ekan.(kashf)

(12) 男は部屋に入ると、友達に電話した。

(同一人物連続動作=「～て」)

Otoko ha heya ni hairuto, tomodachini denwa shita.

Erkak xonaga kir(**sa**)ishi bilan, do`stiga qo`ng`iroq qildi.

(bir vaqtga bog`liq ish-harakat “~te” )

(13) 彼は酒を飲むと、暴力を振るった。(過去の習慣)

Kare ha sake wo nomuto, bouryoku wo

U kishi sake ich(**sa**)ishi bilan,

(11)va(12) misollarga ko`ra, tabiat hodisalar, tabiiy hodisalar, haqiqat, mantiq, nazariya, umumiy bo`lgan faktlarni, obyektivlikka xos bo`lgan mayl, natijaning sababiga aloqadorlikni ko`rsatadi. Aniqrog`i bir holat ro`y berishi bilan, uning orqasidan tabiiy natija sodir bo`ladi.

”Haruni ni naru”(「春になる」), “Jyuugo ya ni naru”(「十五夜になる」), “1 ni 2 wo dasu”(「1に2をたす」), “Sake wo nomu”(「酒を飲む」) va shunga

<sup>7</sup>小林賢次「日本語条件表現史の研究」ひつじ書房による

o`xshash mayllarda, “Sakura no hana ga saku ” ( 「桜の花が咲く」 ), “Manmaruna tsuki ga agaru” ( 「まんまるな月が上がる」 ), “3 ni naru ” 「3 になる」 ), “Kao ga akaku naru” ( 「顔が赤くなる」 ) kabi natijalar keltirib chiqaradi. Bosh gap (“jyouken ” 条件) mayl va tobe gap esa, (kekka” 結果) natijani tabiiy ravishda bog`lash uchun xizmat qiladigan shart mayli bog`lovchisi “to”( と) hisoblanadi.<sup>8</sup> Masalan,

(14) かれはちょっとからかわれると、すぐに本気で怒り出す。

Kare ha chyotto kara kawareru **to**, suguni honkide okoridasu.

U bola ozginasini bil(**sa**)**ishi bilan**, tezda jahli chiqib ketadi.

Yuqoridagi misollarga ko`ra, o`ziga xos alohida harakat haqida holatlarni ifodalasa ham ,alohida holatni emas, umumiy, odatiy harakat va holatlar sifatida qo`llaniladi.

(15) \*お金があると、海外旅行をしたい。

\*okanega aruto, kaigai ryokou wo shitai.

\*Pulim bo`l(**sa**)**ishi bilan**, chet el sayyohatiga borishni xohlayman.

(16) \*ねむいと、寝なさい。

\*Uyqingiz kel(**sa**)**ishi bilan**,

(17) \*高いと、買わなくてもいい<sup>9</sup>。

\*takaito, kawanakutemo ii.

\*Qimmat bo`lsa, sotib olmasangiz ham mayli.

Yuqoridagi misol gaplardan, o`ziga xos alohida harakatlarga aloqadorligi, suhbatdoshning maqsadi, buyruq, ruhsat va shu kabi holatdan ifodalangan paytda “to”( 「と」 ) ni ishlatib bo`lmaydi. “to” ( 「と」 ) suhbatdoshning obyektini bo`lmagan umumiy, har tomonlama to`g`ri kelishini ifodalaydi. Ya`ni, “to” gap oxiriga qo`shilmaydi, yordamchi fe`llardamajburlash ”seru, saseru” (せる、させ

---

<sup>9</sup>小林賢次「日本語条件表現史の研究」ひつじ書房による

る)、 majhul nisbat “reru, rareru”(れる、られる)、 yechim “da,desu”(だ、です), inkor “nai, masen” (ない、ません) bilan qo`shilib keladi. Lekin o`tgan zamon shakli “ta” (「た」) ga qo`shilib kelish hollari yo`q. Agar o`tgan zamon shakli “ta” (「た」) ni ishlatsa, alohida o`ziga tegishli holatni ifodalab qo`yish mumkin. Shart mayli ”to” (「と」) ning gapda turlanishi faqatgina hozirgi zamonga tegishli bo`lishi kerak.

Xulosa qilib, yuqoridagi misollardan kelib chiqib, shart mayli “to (「と」) ning gapda ishlatilishini quyidagicha bo`lish mumkin. ”

**a) Umumiy, yagona holatni ifodalash uchun;**

(18) 春になると、桜が咲きます。 (でも言いかえが可能)

Haru ni naru **to**, sakura ga sakimasu.

Bahor kel(**sa**)ishi bilan, gullar ochiladi.

((「ば」)”ba” ishlatish holati ham bor)

**b) Sodir bo`lgan ish-harakat, kashf etilgan holatlarda;**

(19) 空を見ていると、UFOが飛んできた。

Sora womite iru **to**, UFO ga tonde kita.

Osmonga qara(**sa**)shim bilan, UFO qushi uchib keldi.

**c) Shart maylida hamda buyruq-istak maylida ham ishlatilishi mumkin;**

(20) ここをまっすぐ行くと、右手に大きな建物が見えます。

(仮定条件)

Koko womassugu ikuto, migite ni ookina tatemono ga miemasu.

Bu yerdan to`g`ri borsangiz, o`ng qo`lda katta bino ko`rinadi.

(21) 仕事をやめるとすぐにお金がなくなった。

(確定条件)

Shigoto wo yameruto suguni okanega naku natta.

Ishdan bo`shashim bilan, pulim tugadi. (Buyruq-istak mayli)

**d) Tobe gapda fikr, maqsad, buyruq, iltimos kabilar ifodalanadi**

(22) 山田さんに会うと、よろしくお伝えください<sup>10</sup>。

→×(「たら」を使う)

Yamada san ni auto, yoroshiku otsutae kudasai.

Janob Yamada bilan uchrashsangiz, salom ayting.

→×(「たら」 ”tara” ham ishlatilishi mumkin.

**1.1.2. “BA” shart maylining qo`llanish xususiyatlari**

Shart mayli bog`lovchisi “ba (ば)” ning ma’no xususiyatlari, gapda yasalish qoidasi, asosiy gapning oxirida ma’no ifodalovchi ishlatiladimi, o`tgan zamon shaklida ham ishlatish hollari mavjudligi va “ba (ば)” bilan “to (と), tara (たら), nara (なら)” ning farqli jihatlarini quyidagi holatlaridagi gaplar orqali ko`rib chiqiladi.

**Shart mayli “ba (ば)” ning yasalish usuli:**

Fe'l (動詞)	Sifat(イ形容詞)	Sifat(ナ形容詞) Ot (名詞)+だ	} +ba (ば)
行け } +ba (ば) 行かなけれ	忙しけれ } +ba (ば) 忙しくなけれ	元気休み } 元気やすみじゃない } +ba (ば)	

Avval, ba ( )

daqandayishlatilishxususiyativama’noxususiyatiborligihaqidako`ribchiqamiz.

**“ba (ば)” ningma’noxususiyatlari:**

Shartmayliba( rebadebhamishlatilishimumkin)  
bog`lovchiligaphaqidainkoro`tganzamonvao`tganzamonholatidako`ribchiqamiz.

**1. O`tgan zamonbo`lmagan vaziyatlarda.**

**1) Umumiy (subyektiv)shart mayli, mantiqiy, nazariyani ifodalab keladi.**

<sup>10</sup>矢津田花絵、東洋大の勉強会の発表による、2011

(23) 春が来れば、花が咲く。

Haruga kureba, hana ga saku.

Bahor kelsa, gullar ochiladi.

(24) 話せば、分かる。

Hanaseba, wakarui.

Gapirsangiz, tushunamiz.

(25) ちりも積もれば、山となる。

Chiri mo tsumoreba, yama to naru.

Chang ham yeg'lsa, tog`bo`lur.

## 2) Qaytarish va odat bo`lib qolgan holatlarni ifodalaydi.

(26) 隣の犬は主人を見れば、飛んでくる。

Tonari no inu ha shyujin wo mireba, tonde kuru.

Qo'shni kuchuk o`z xo`jayinini ko`rsa, uchib keladi.

(27) 天気がよければ、ジョギングに行く。

Tenki ga yokereba, jyogingu ni iku.

Ob-havoyaxshi bo`lsa, yugurgani boraman.

## 3) “savol so`z +ba ii (ばいい)” shaklda savol so`rash holatini ifodalaydi.

(28) 音を大きくするとき、どうすればいいですか。

On wo ookiku suru tokiha, dou sureba ii desuka.

Ovozini baland qilinyapgan payt, nima qilsayaxshi?

(29) あしたは何時に来ればいいですか。

Ashita ha nanji ni kureba ii desuka.

Ertaga soat nechada kelsam yaxshi?

## 4) Gap oxirida qo`shimcha sifatida kelish holatini ifodalaydi.

(30) A: どうしようかな。 B: ともかくやってみれば。

A: doushyoukana. B: tomokaku yatte mireba.

A: Nima qilsam ekan-a. B: Nima bo`lsa ham, qilib ko`rsangiz-chi.

(31) 学生時代は、冬になれば、スキーばかりしていた。



(過去の習慣)

Gakusei no jidai ha, fuyu ni nare**ba**, suki- bakari shite ita.

Talabalik davrimda, qish bo`l**sa**, faqat konki uchardim.

(O`tgan zamondagi odat)

(32) よく見れば、彼女には美人ではなかった。 (認識)

Yoku mire**ba**, kanojyo ni ha bijin deha nakatta.

Yaxshilab qarasa**m**, u qiz chiroyli emas ekan. (tushunish)

(33) 時間があれば、映画を見に行けるだろう<sup>11</sup>。

Jikan ga are**ba**, eiga wo mini ikeru darou.

Yuqoridagi gaplardabosh gap”jikan ga areba” (「時間がある」) ham , tobe ham ”eiga wo mini ikeru” (「映画を見に行ける」) ham kelajak, ことも、未来の、kelajakda bor bo`lishi, 未実現の、halqilinmagan holatlarda ishlatiladi. Bunda gapmayllari umumiy qilib shart mayli deb ataladi. Shart mayli deb, faktlarning aloqasi bo`lmay, zamonlare`tiborgaolinadi. Quyidagi gaplarda ko`rishimiz mumkin.

(34) 時間があれば、映画を見に行けたのに。

Jikanga are**ba**, eiga womini iketanoni.

Vaqtim bo`lsaydi, kino ko`rgani borgan bo`lardim.

Ushbu gapda hozirgi sharoitda “vaqt yo`q” (jikanga nakatta 「時間がなかった」) degan ma`noni bersada, lekin zamon ishlatilishi o`tgan zamonda berilyapti. Bunday hollarni “hanjijitsutekiyouhou ” (反事実的用法) deb ataladi. Yuqoridagi (34) holatda faraz usuli deb atash mumkin. “kaset sutekiyouhou ” (仮説的用法 shart maylining ishlatilish yo`llari hisoblanadi.

Biroq, “ba ( 「ば」 )” quyidagicha mayllarda ham ifodalanish hollari mavjud.

(35) ここまで来れば、敵も追っては来ないだろう。

Koko made kureba, teki mo otte ha konaidarou.

<sup>11</sup>市川保子、「日本語文法と教え方のポイント」、2009、pp. 415-420

Bu yergacha kelsam, o`g`ri hamorqamda quvim kelmasa kerak.

(36) 水は百度になれば沸騰する。

Mizu ha hyaku ni nare**ba** futtou suru.

Suv yuz graduz bo`lsa, qaynaydi.

(37) お酒を飲めば、いつも頭が痛くなる。

Osake wo nome**ba**, itsumo atama ga itaku naru.

Aroq ichs**am**, har doim boshim og`riydi.

Bu o`tgan, hozirgi, kelasi zamonda kelib chiqib tuzilgan holatlarni ham ifodalashi “shart ” degan ma`noga mos kelmaydi. Bunday maylli gaplar odatiy, tabiiy sodir bo`ladigan holatlarda ishlatiladi.

Shart mayli kelmagan gaplar, qaytarishva odatiy mayl gaplar bilan birga keladi.

(38) お酒を飲めば、いつも頭が痛くなる。

Osake wo nome**ba**, itsumo atama itaku naru ga iataku naru.

Aroq ichs**am**, har doim boshim og`riydi.

(39) お酒を飲めば、いつも頭が痛くなった。

Osake wo nome**ba**, itsumo atama ga itaku natta.

Aroq ichs**am**, har doim boshim og`ridi.

(38) va (39) dagi gapbir-biriga o`xshash bo`lib, lekin o`tgan zamon nuqtai nazaridan har ikki gap ajralib turadi.

Yuqoridagi gaplardan kelib chiqqan holda, “ba ( 「ば」 )” ning ishlatilishi quyidagicha bo`ladi.

**a) Umumiy bo`lgan mayl (odatdagidan ko`ra ) ini ifodalovchi holatlarda qo`llash (maqol);**

(40) 犬も歩けば棒に当たる。

Inu mo aruke**ba** bouni ataru.

Kuchuk yursa, yog`ochga chiqadi.

**b) Haqiqatda amalga oshmagan ish-harakatni ifodalaganda ;**

(41) あの時彼と結婚していれば、今ごろもっと幸せだったの  
に。 (「たら」でも言いかえが可能)

Ano jidai kare to kekkon shite ireba, ima goro motto shiasedatta  
noni.

Qani endi, o`sha payt u bilan turmush qursam edi, hozir yanada  
baxtlibo`lgan bo`lar edim.

**c) Tobe gap bosh gapning holatiga bog`liqligida foydalaniladi;**

(42) 田中さんが行けば、私も行く。

Natanaka san ikeba, watashi mo iku.

Janob Tanaka borsa, men ham boraman.

**d) Bosh gap tobe gapda vaqt cheklanishi bo`lmaydi.**

(43) この本を読んだら、次にこの本を読みます。→○

Kono hon wo yondara, tsugini kono hon wo yomimasu.

Bu kitobni o`qisam, keyin bu kitobni o`qiyman.→○

(44) この本を読めば、次にこの本を読みます。→?

Kono hon wo yomeba, tsugini kono hon wo yomimasu.

Bu kitobni o`qisam, keyin bu kitobni o`qiyman.→?

**e) Tobe gapga mos bo`lmagan holatda ishlatish qiyin;**

(45) 徹夜すれば、体調が悪くなりますよ。→?

Tetsuya sureba, taichyou ga waruku narimasuyo.

Uyqusizlik bo`lsa, jismoniy ahvolingiz yomon bo`ladi-ku.

(46) 徹夜すると、(したら)、体調が悪くなりますよ。→○

Tetsuya sureba, taichyou ga waruku narimasuyo.

Uyqusizlik bo`lsa, jismoniy ahvolingiz yomon bo`ladi-ku.

**f) O`tgan zamon faktini ifodalshda ishlatilmaydi;**

(47) 山田さんにメールを送れば、すぐに返事がかえってきました。→×

Yamada san ni me-ru wo okureba, sugunihenji ga kaette kimashita.  
Janob Yamadaga meil jo`natsangiz, tezda javob qaytib keldi.

(48) 山田さんにメールを送ると、(送ったら)、すぐに返事がかえってきました<sup>12</sup>。→○

Yamada san ni me-ru wo okureba, sugunihenji ga kaette kimashita.  
Janob Yamadaga meil jo`natsangiz, tezda javob qaytib keldi.

### 1.1.3. “TARA” shart maylining qo`llanish xususiyatlari

#### Shart mayli “tara (たら)” ning yasalish usuli:

Fe'l (動詞)	Sifat(イ形容詞)	Sifat(ナ形容詞) Ot (名詞)+だ	+tara (たら)
行っ 行かなかっ	忙しかっ 忙しくなかつ	元気/休みだっ 元気/やすみじゃなかつ	+tara (たら)

Avval, tara (たら) daqandayishlatilishxususiyativama'noxususiyatlari-nio`rganibchiqamiz.

#### “tara (たら)” ningma'noxususiyatlari:

Shartmaylitarabog`lovchiligaphaqidainkoro`tganzamonvao`tganzamonholatidako`ribchiqamiz.

#### 1. O`rgan zamon bo`lmagan vaziyatlarda.

##### 1) Haqiqatdan sodir bo`ladimi, yo`qmi bilmaydigan ish-harakatga nisbatan shart mayli ishlatiladi.

(49) 100万円あったら、世界一周したい。

100 man en attara, sekai issyuu shitai.

Qani endi, 100 yenim bo`lsaydi, dunyoni aylanib chiqardim.

(50) 雨が降ったら、行きません。

<sup>12</sup>矢津田花絵、東洋大の勉強会の発表による、2011

Ame ga futtara, ikimasen.

Yomg`ir yog`sa, bormaymiz.

**2) Deyarli halqilingan ish-harakatlarga nisbatan.(Shu sabab bo`lib, o`sha paytda) degan ma`nolarni anglatadi.**

(51) ご飯を食べたら、私の部屋に来て下さい。

Gohan wo tabetara, watashi no heyani kite kudasai.

Ovqat yesangiz, mening xonamga keling.

(52) 仕事が終わったら、プールへ泳ぎに行こう。

**3) Gap oxirida qo`shimcha sifatida keladi.**

(53) A: どうしようかな。 B: ともかくやってみたら。

A: doushiyoukana. B: tomokaku yatte mitara.

A: Nima qilsam ekan-a... B: Bir marta qilib ko`rsangiz-chi.

**2. O`tgan zamon gapda qo`llanilishibo`yicha.**

(たら) “tara” o`tgan zamon shaklida “faqat bir marta, tabiiy, kashf, sabab” kabi ma`nolar bilan ifodalaniladi.

(54) 宝くじを買ったら、一等に当たった。(1回きり、偶然)

Takarakuji qo kattara, ittou ni atatta.

Qarta sotib olsam, menga tushdi. (bir martalik, tasodif)

(55) 町を歩いていたら、前田先生を見かけた。(偶然、発見)

Machi wo aruite itara, Maeda sensei wo mikaketa.

Ko`chada sayr qilib yursam, ustoz Maedani ko`rib qoldim.(tasodif)

(56) 昨日教室へ行ってみたら、だれもいなかった。

Kinou kyoushitsu e itte mitara, daremo inakatta.

Kecha sinfga borib ko`rsam, hech kim yo`q ekan.

(57) 家へ帰ったら、お客さんが来ていた。

(58) Ie e kaettara, okyakusanga kite ita.

Uyga qaytsam, mehmon kelib qoldi.

(59) 先週の日曜日にデパートへ行ったら、人でいっぱいだった。

Sensyuuno nichiyoubi ni depa-to e ittara, hito de ippai datta.

O'tgan hafta yakshanba kuni univermagga borsam, odam ko'p ekan.

Yuqoridagi gaplarga ko'ra, bosh gapga taaluqli bo'lgan ish-harakatni, tobe gapda ham ko'rsatiladi. Bosh gapda sodir bo'lsa ham, sodir bo'lmasa ham, tobe gapda ifodalanib keladi. Aniqrog'i bosh gapda sodir bo'lgan ish-harakat, tobe gapda esa, o'sha gap eslatib o'tiladi. Bosh gap bilan tobe gap o'zaro bog'lanmasdan, shunchaki, o'zaro vaqt aloqadorligini ifodalaydi. Ikkala gapda tasodifdan, tobe gapda keladigan kutilmagan hodisalar keltirib chiqaradi.(53, 54, 55) dagi gaplarda kamdan-kam, tasodifan bundan boshqa, o'ylaganiga qarshililar kabi holatlar bilan kelishi mumkin<sup>13</sup>.

Shunday qilib, “tara”(「たら」), “to”(「と」) va “ba”(「ば」) shart maylining bir-birining o'rnida qo'llay olishi va qo'llay olinmasligi holatlari quyidagi gaplar orqali ko'rib chiqamiz.

(60)

a. 朝、目が覚めたら、雪が降っていた。

Asa, me ga sametara, yuki ga futte ita.

Ertalab ko'zimni ochsam, qor yog'ib turgan ekan.

b. 朝、目が覚めると、雪が降っていた。

Asa, me ga sameruto, yuki ga futte ita.

Ertalab ko'zimni ochsam, qor yog'ib turgan ekan.

c. \*朝、目をさめれば、ゆきが降っていた。

Asa, me ga samereba, yuki ga futte ita.

Ertalab ko'zimni ochsam, qor yog'ib turgan ekan.

Yuqoridagi misollarga ko'ra, “to” shart mayli , boshqa shart mayli bog'lovchisi bilan almashib keladi. Lekin “ba” boshqa shart mayli bog'lovchisi

<sup>13</sup>前田直 「条件の『たら』と『ば』」

bilan almashilib kelmaydi. O'tgan zamonda tasodif sodir bo'lgan ish-harakat uchun "tara" va "nara" ni ishlatib bo'ladi-yu, lekin "ba" ni ishlatib bo'lmaydi<sup>14</sup>.

(61)

a. 書いてしまったら、帰ってもいいですよ。

Kaite shimattara, kaettemo ii desuyo.

Yozib bo'lsangiz, qaytib ketishingiz mumkin.

b. \*書いてしまうと、帰ってもいいですよ。

\*Kaite shimauto, kaettemo ii desuyo.

Yozib bo'lsangiz, qaytib ketishingiz mumkin.

c. 書いてしまえば、帰ってもいいですよ。

Kaite shimaeba, kaettemo ii desuyo.

Yozib bo'lsangiz, qaytib ketishingiz mumkin.

Shunga o'xshash gaplarda, tobe gapda suhbatdoshning fikri ijobiy gaplarni ifolaganda, "tara"ni "ba" ga almashtirib bo'ladi-yu, "to" ni almashtirib bo'lmaydi.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqqanholda, "tara" ning ishlatilish usuli quyidagicha:

**To'rttala shart maylining ichidan eng ko'p ishlatiladigani;**

**a) Faqat bir martalik ish-harakat uchun ishlatiladi;**

(62) 100万円当たったら、旅行に行きましょう。

100 man en attara, ryoukouni ikimasyou.

100 ming yenim bo'lsa, sayyohatga borgan bo'lardim.

(63) いつも5時になったら、仕事をやめて、家に帰ります。

Itsumo 5 jini nattara shigoto wo yamete, ieni kaerimasu.

Har doim soat 5 bo'lsa, ishimni tugatib, uyga qaytaman.

<sup>14</sup>川口機一「条件表現を例として」

**b) Tobe gapda fikr, niyat, maqsad, buyruq, iltimos shakllari kelishi mumkin;**

(64) 暇があったら海外旅行をしたい。(希望)

Hima ga attara kaigai ryokou wo shitai.

Bo`sh bo`lsam, chet davlatga sayyohat qilishni xohlayman.

**c) Shart maylida ham, buyruq-istak maylida ham ishlatilishi mumkin;**

(65) 1日30時間あったら、どうしますか。(仮定条件)

1nichi 30 jikan attara, doushimasuka.

Bir kunda 30 soat bo`lsa, nima qilgan bo`lardingiz? (shart mayli)

**d) Vaqtga nisbatan bosh gap tobe gapga aloqador bo`lib keladi; (bosh gada sodir bo`lgan ish-harakat, tobe gapda ham albatta sodir bo`ladi.)**

(66) 暑かったら、窓を開けてください。

Atsukattara, mado wo akete kudasai.

Issiq bo`lsa, derazani oching iltimos.

